



**SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**




**SIRDARYO VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQARISHI**
2023- YIL YANVAR-APREL OYLARI




Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2023- yil yanvar-aprel oylarida)

2023- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4840,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush Ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 53,0 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoat – 9,6 % ga o'sishi kuzatildi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22,5 mln. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2565,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 53,0 % ni tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,5 % ni (2022- yilning yanvar-aprel oylarida – 4,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,9 % (3,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 20,9 % (19,7%) va quyi texnologiyalisi – 71,7 % (72,1 %) ni tashkil etdi.







Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 3,5 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,7 %), boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 8,0 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,6 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 37,3 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,9 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,8 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *



* Yanvar-aprel oylari yirik korxonalar bo‘yicha



2023- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 5,9 ming tonna boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar (2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 13,2 % ga ko'paygan), 5,6 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (101,7 % oshgan) hamda 13,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (45,1 % ga kamayib) ishlab chiqarilib, past o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna	6645	2205	-4440
Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna	276,5	557,6	281,1
Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t.	5,2	5,9	0,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	25,0	13,7	-11,3
Paxta tolasi, ming t.	9,7	11,6	1,9


Yanvar-aprel oylari yirik korxonalar bo'yicha

Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati ulushi 0,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 3,0 % ga kamaygan, 2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,3 % ni fizik hajm indeksi esa, 2,6 m ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 7,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 9,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 8,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,4 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 204,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 99,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 10,9 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 784,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 42,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 110,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 8,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 133,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 13,8 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 853,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022- yil yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 105,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 %, fizik hajm indeksi 73,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 89,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 68,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 110,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 14,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2022- yil yakunlariga ko'ra, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 98,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 % ni, fizik hajm indeksi 98,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 90,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 143,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 107,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 31,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2221,4 mlrd . so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 45,9 %) ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,2 % ga ko'payish kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	6347,3	6300,8	-46,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	45,1	54,6	9,5

yanvar-aprel oylari yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 31,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %) ni tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	11,4	13,0	1,6
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	2,0	2,9	0,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 2,8 m oshgan hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 2,1 m ko'payishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1017,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 122,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulush 21,1 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-aprel

72,3%

2023- yil
yanvar-aprel

75,8%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil
yanvar-aprel

27,7%

2023- yil
yanvar-aprel

24,2%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,7 % (2022- yil yanvar-aprel oylarida 124,2 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 20,9 % , Guliston shahri 20,2 %, Yangiyer shahri 13,1 % , Boyovut | tumani 11,2 % hamda Sayxunobod tumani 9,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (122,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yangiyer shahri (436,2 %), Oqoltin tumani (194,7 %), Guliston tumani (187,0 %) hamda Boyovut tumanida (148,6 %) qayd etildi.